Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiya. Xalqaro huquq g'oyasining vujudga kelishi tarixiga qarar ekanmiz, tadqiqotchilar mustaqil siyosiy-hududiy birliklar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi umumiy qoidalarning asoschilari sifatida Yevropa olimlarini misol qilib ko'rsatishadi. G'arbda XVI — XVII asrlarda xalqaro huquqning shakllanish davridan XVIII asrgacha bo'lgan davr «**Xalqaro huquqning epik davri**» deb atalib, ushbu sohaning mashhur olimlari yetishib chiqqanligi bayon qilinadi[2]. Bunday olimlar orasida Gugo Grotsiy, Fransisko de Vitoria, Alberiko Jentili, Per Beyl va boshqalarni ko'rsatishimiz mumkin. Tabiiy huquq nazariyachilaridan biri bo'lgan niderlandiyalik huquqshunos va diplomat Gugo Grotsiy (Hugo Grotius, 1583-1645) ko'plab adabiyotlarda «Xalqaro huquqning otasi» deb ataladi [3]. U o'zining shoh asari bo'lmish «Urush va tinchlik qonuni» (De Jure Belli ac Pacis) kitobini 1625-yilda nashr etgan. Gugo Grotsiy butun Yevropani qamrab olgan shiddatli 30 yillik urushda bevosita qatnashadi. Ushbu kitob xalqaro huquq mavjudligining asosi sifatida tabiiy huquq nazariyasini ko'rsatadi[4]. Grotsiydan avvalroq ispaniyalik ilohiyotchi Fransisko de Vitoria (Vitoria, 1483-1546) hamda Suares (Suarez, 1548-1617) kabi olimlarning asarlarida xalqaro huquq sohasining tamal toshlari qo'yilgan deyishimiz mumkin. Ushbu analitik ish mavzusi davomida aynan, xalqaro huquqning fundamental asarlarini tahlil qilamiz.

Hanafiy mazhabining buyuk faqihlaridan biri «Shams ul-Aimma» («imomlar quyoshi») Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn Abi Sahl Saraxsiy Movarounnahrda (taxminan milodiy 1010-yilda tugʻilib, 1096-yil vafot etgan[5]. Bu vaqtda Movarounnahrda Qoraxoniylar sulolasi (927-1212) hukmronlik qilardi. Muhammad bolaligidan ilmga chanqoq va oʻtkir zehqli boʻlgan. Keyinchalik u Movarounnahrning turli shaharlarida, jumladan, Samarqand va Buxoroda ilmini takomillashtirgan. Buxoroda uzoq muddat yashagan. Abu Muhammad Abdulaziz ibn Ahmad Buxoriydan (1057) fiqh, usul al-fiqh, hadis, kalom ilmlaridan dars olib, zamonasining yetuk fiqh olimi boʻlib etishadi[6]. Saraxsiy taniqli hanafiy faqihi Shams al-Aima Halvoniyni shogirdi edi[7]. Halvoniyni «Madinat al-ulum»ini tamom- laganidan soʻng, u oʻzining munozaralari va kitoblari bilan ilm ziyosi boʻldi[8] va shuning uchun ham alloma ustozining «Imomlar quyoshi» degan unvonini oldi[9].

Buyuk vatandoshimiz Muhammad Abu Bakr Saraxsiy al-Hanafiyning xalqaro huquqqa oid «Sharh as-Siyar al-Kabir» (شرح كتاب السير الكبير) mumtoz asari fundamental, xalqaro huquqning tayanch qoʻllanmasidir. Ushbu asar «Xalqaro huquqqa oid sharhlar» asari boʻlib, islom huquqi sohasida ham nazariyotchi, ham amaliyotchi olim sifatida tanilgan Muhammad Shayboniy (750-805)ning asari asosida «sharh» orqali tasniflangan islom va xalqaro huquqqa bagʻishlangan birinchi qomusiy asar sifatida eʼtirof etilgan. Saraxsiyning islom xalqaro huquqiga qoʻshgan hissasi ulkandir. Bu sohadagi betakror xizmati uchun ulugʻ mutafakkirga «Islom dunyosining Gugo Grotsiysi» deb laqab berishgan. Saraxsiyning ushbu «sharh»ida tinchlik sulhi shartnomalarining uzogʻi bilan 10 yil muddatga tuzish lozimligi eslatiladi[10]. Bunda tinchlik sulh shartnomalari muayyan maqsadlar asosida tuziladi. Ushbu asar jami 5 jildan iborat boʻlib, islom huquqi tarixidagi siyar (xalqaro huquq)ga bagʻishlangan birinchi doktrinal asardir. Asarning har bir jildi alohida mavzulashtirilgan boʻlib, asosan mudofaa sulhi, tinchlikni qaror toptirish kabi mavzularni qamrab oladi. Mazkur asarni alloma Oʻzgand shahrida zindonda yozishni boshlagan va uni Fargʻonada tamomlagan.

Ayni shu davrlarda islom davlatlarining aloqalari kuchayib borgan va diplomatik aloqalar uchun xalqaro huquq meʼyorlarining zarurati yuqori hisoblangan. Tashqi siyosat va xalqaro aloqalar vositasi sifatida diplomatik aloqalar islom davlatchiligida muhim ahamiyat kasb etgan. Shu bois, islom huquqi tamoyillariga mos ravishda diplomatik va konsullik huquqi ham rivojlanib borgan. Ummaviylar va Abbosiylar davriga kelib, Arab xalifaligi bilan Gʻarb va Sharq davlatlarida oʻzaro aloqalar yanada kuchaygan. Xususan, Ummaviylar bilan ularning joylardagi noiblari oʻrtasida hijriy 59-132-yillar oraligʻida 62 marta elchilik safarlari tashkil etilgan, 59 marta oʻzaro maktublar almashinuvi amalga oshirilgan. Islom huquqida elchilarga bemisl daxlsizlik huquqi va intiyozlari taqdim etilgan. Ularning baʼzilari hozirgi kunda ham amaliyotda qoʻllaniladi, baʼzilari esa vaqt oʻtishi bilan bekor qilingan. Bu esa oʻz oʻrnida Islom xalqaro huquqining oʻsha davrda shakllangani va uni hamyurtimiz tomonidan tasniflash orqali tizimli asosda ilmiy tahlil qilingani mutlaq tan olishimiz zarur. Bu haqiqat oʻz navbatida turli asarlarda hamda koʻplab olimlar, siyosatchilar tomonidan eʼtirof etilgani ayni haqiqatdir.

Tahlil va natijalar. Shu oʻrinda xalqaro huquqning turli masalalari yuzasidan sharq va islom olamining vakili — Saraxsiy va gʻarb mumtoz olimi — Gugo Grotsiyni qarashlarini taqqoslab oʻtishimiz foydadan xoli emas. Urush va tinchlik masalasida Grotsiyni fikricha, faqat adolatli urushlarga ruxsat berilishi kerak. Gugo Grosiy urush muammolarni hal qilish vositasi sifatida qabul qilinishi lozim degan fikrni ilgari suradi. Buning asosi sifatida xalqlar oʻrtasidagi nizoni qonuniy hal qilish uchun sudlarning yoʻqligini daʼvo qilib, boshqa tomondan,

urush sabablari faqat sudga tortilishi mumkin bo'lgan sabablar bilan cheklanishi kerakligi haqidagi fikrlarini bayon etadi. Masalan, u mulkni himoya qilish va qayta tiklash urushning sababi hisoblanishini ta'kidlaydi, shuningdek, jinoyat va jazo nazariyasini ishlab chiqdi[11]. Lekin, bundan besh asr ilgari Abu Bakr Saraxsiyning nodir asari «**Sharh as-Siyar al-kabir**»ning 1-jildi urush huquqiga bag'ishlangan bo'lib, unda urushga tayyorgarlik, urush harakatlari va qurol qo'llash qonuniyligi haqida so'z yuritiladi. Unda otlarni urushga tayyorlashdan tortib jangda qo'llaniladigan qurol-aslahalargacha bo'lgan savollar muhokama etiladi hamda urushning natijasi islom dini maqsadlariga muvofiq bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi[12]. Urushning faqat odilona olib borilishi, tinch aholiga ozor yetkazmasligi, inson huquqlarining ustunligi haqida fikrlar asardan joy olgan. Shuningdek, kitobning 2-jildida urushda qo'lga kiritilgan o'ljalor xususida ham so'z yuritiladi.

Saraxsiy xalqaro shartnomalar tuzishning birinchi bosqichi bo'lmish muzokaralar jarayonida kelishib olinishi muhim bo'lgan masalalar xususida o'z qarashlarini bayon qiladi. Uning fikricha, muzokaralashuv – murovaza bosqichida shartnoma tuzishdan maqsad, uning predmeti, shartlari, matnini tuzish, shartnomaning ijrosini ta'minlashga oid tomonlarning roziligi va majburiyatlari, shartnomani bekor qilish asoslari, undan kelib chiqadigan nizolarning oldini olish va hal etish choralari bo'yicha tomonlarning roziligi oldindan kelishib olinishi shart. Saraxsiy asarlarida diplomatik huquqdagi har bir holat aniq-tiniq izohlanadi. Elchiga nisbatan hukmdorlar va imomlarning huquq va majburiyatlari ham ko'rsatib beriladi. Saraxsiy fikriga ko'ra, imom ham musulmon ahli, ham aman (omonlik) yorlig'iga ega musta'min uchun ham birdek javobgar shaxsdir. Shundan kelib chiqqan holda, imom o'zga mamlakatning elchisini himoya qilishga majburdir[13].

Bugungi kun nuqtai nazaridan qaraganda, Saraxsiy asarlarida bayon etilgan mazkur holatlar (elchilik sha'nini hurmat qilish va himoyalash, elchini zarur holatda qo'shimcha mablag' va transport vositalari bilan ta'minlash hamda shaxsiy xavfsizligini muhofaza etish) hozirda amal qilayotgan Diplomatik aloqalar to'g'risidagi 1961-yilgi Vena konvensiyasining 22- (2-band) va 44-moddalarida mos keladi[14].

Saraxsiy ko'targan yana bir masala xalqaro huquqdagi o'zarolik (arab tilida “muzaja”, ingliz tilida “mutual reciprocity”) tamoyili konsepsiyasidir. Xalqaro huquqda davlatlararo munosabatlarda amal qiladigan tamoyillar muhim ahamiyatga ega. Saraxsiy o'zarolik konsepsiyasini ilgari surish bilan turli diniy e'tiqod va madaniyatlarga mansub xalqlar o'rtasidagi bag'rikenglik va yaxshi qo'shnichilik g'oyalarini eng yuqori minbardan turib targ'ib etgan. Saraxsiy xalqaro huquqning yana bir masalasi – nizolarni hal etishning hakamlilik (arab tilida “taufiq”, ingliz tilida “arbitration”) institutini ilgari surgan. Saraxsiy hakamlilik vazifasini ado etish uchun muayyan talablarni ishlab chiqadi. Unga ko'ra, hakam aqlli, sog'lom va xalq orasida hurmatga sazovor bo'lishi lozim. Hakamlilik instituti keyinchalik yana bir hamyurtimiz Burhoniddin Marg'inoniy tomonidan ham rivojlantirildi. Marg'inoniy o'zining “Hidoya” asarida hakamning xolis bo'lishi xususida shunday yozadi: “agar hakam tomonlar roziligidan oldin harakat qilsa, yoki o'zining otasi, onasi, xotini yoki farzandi shu nizoga aralashib qolgan bo'lsa, uning mazkur nizoga oid qarori nomaqbuldir”[15]. Saraxsiy nizolarni tinch yo'l bilan hal etish va hakamlilik (arbitraj) masalalarini muayyan huquqiy holatlar (keysalar) misolida tushuntirishga harakat qiladi va bunda aqliy mushohada usuli istihsondan unumli foydalanadi. Chunonchi, asar tahlilidan kelib chiqqan holda, “Sharh as-Siyar al-Kabir” asarini Xalqaro huquqning ilk fundamental asar ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu asar yozilganidan so'ng 5 asr o'tib yana bir fundamental asar "**De Jure Belli ac Pacis**" (Urush va tinchlik)ni ko'rishimiz mumkin. Haqiqiy ma'noda, ushbu asar xalqaro huquq va siyosiy falsafa sohasidagi asosiy matnlardan biridir. Ushbu asar urush va tinchlik konsepsiyalarini bilan birgalikda, asosan urushni olib borish va davlatlar o'rtasidagi tinchlikni ta'minlash uchun huquqiy asoslarni yaratishga qaratilgan. Ushbu asar Yevropadagi siyosiy va diniy qarama-qarshiliklarning mohiyatini ko'rsatib bergan. Grotsiyning asosiy asari 1625-yilda Fransiya nashr etilgan va Louis XIII ga bag'ishlangan "Urush va tinchlik qonuni" kitobida tabiiy huquq tamoyillari tizimi, dunyo huquqi va zodagonlar huquqi ishlab chiqilgan. Uni yozishda gollandiyalik olim quyidagi maqsadlarni ko'zlagan: xalqaro hamjamiyatning dolzarb muammolarini hal etish va urushning tartibini ishlab chiqish kerakligi to'g'risidagi nazariyalarni ilgari surgan. Gugo Grotiy Gollandiya va Ispaniya o'rtasidagi sakson yillik urush va Kololiks va Karopa protestantlari o'rtasidagi urushning 30 yilligi davrida yashagan, u tajovuzkor urushlarni qoralagan va bunday to'qnashuvlar faqat bir marta o'tkazilishi kerak deb hisoblagan[16]. "Urush va tinchlik qonuni" to'g'risidagi asarning asosini tabiiy huquq doktrinasi tashkil etadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining sobiq Bosh kotibi Peres de Kuelyaming yozishicha: «BMT Ustavida mustahkamlangan g'oyalar kishilik jamiyati taraqqiyotining qaysidir bosqichida fantastik, hatto g'ayritabiiy bo'lib tuyulgan. Bu g'oyalar G. Grotsiy va Immanuel Kant singari olimlarning miyalarida paydo bo'lgan. Afsuski, hukmdor doiralar bu g'oyalarga deyarli e'tibor berishmagan»[17].

Muhokama. "Urush va tinchlik qonuni" asarini asosiy uchta qismga bo'lib olsak bo'ladi. Birinchi bo'limda: Urushning olib borilishi va yoki Urush tabiati haqida so'z boradi. Gugo Grotsiyning aynan I Qismidagi birinchi savol "Urush nima, qonun nima?" ekanligiga bag'ishlangan. Unda, urush, tinchlik, chegara, millat masalalari ko'tarilgan. Urushga ta'rif berishda – umumiy qonun ostida birlashmagan xalq yoki turli xalqlarga mansub bo'lganlar va asilzodalar va respublikalardagi erkin fuqarolarning nizolari deyilgan[18].

Qonunlar o'zaro farq qilib ("facultas" va "aptitudo"), birinchisi, shaxsga xos bo'lgan axloqiy sifat bo'lib, uning sharofati bilan qonuniy ravishda biror narsaga egalik qilish yoki u yoki bu tarzda harakat qilish mumkin. Bu huquq shaxsga xosdir, garchi u ko'pincha narsalar bilan bog'liq bo'lsa-da, masalan, mulkda yotgan va boshqa huquqlardan farqli o'laroq, sof shaxsiy huquqlar nomini olgan xizmatlar bilan bog'liq bo'ladi. Tabiiy narsalarda birinchisi harakatga mos keladi, ikkinchisi – imkoniyat degan fikrni ilgari surgan.

"Urush va tinchlik qonuni" asarining II Qismi aynan kengroq yoritilgan bo'lib, unda kichik daryo va dengiz huquqi, xalqlar huquqi va elchilar huquqi kabi doktrinalar ham yozilgan. Unda, Insoniyat ittifoqlarga birlashish imkoniyatiga ega bo'lgan davrda ham, faqat yerlarni bosib olish va uni o'z egalik huquqi ostiga olganini bayon qiladi. Servitut huquqi bo'yicha bildirilgan fikrni ko'radigan bo'lsak, kimdir servitut belgilash yoki garov o'rnatish orqali biror narsani dastlabki sotib olishi mumkin; ammo, mulk egasining mulkiy huquqi hisobida qoladi deyilgan. Aynan bu yerdagi servitut – barcha moddiy ashyolarga qo'llanilishi mumkin ekanligi, bunda, dengiz, daryo, u yoki bu shakldagi moddiy jismlarni ko'rishimiz mumkin. Aynan bu doktrinaning hozirgi kundagi o'rni sifatida, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyasi(United Nations Convention on the Law of the Sea)ning 4-moddasi[19] ya'ni, hududiy dengizlarning tashqi chegarasi (umumiy insoniyat mulki) hisoblangan hududlarni tartibga solinganligini ko'rishimiz mumkin.

II Qismning VIII Bobi aynan xalqlar mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, Rim huquqshunoslarining fikrlari ko'proq ta'kidlab o'tilgan. Xalqlar huquqi masalasi aslida "huquq" emas, balki, bu xalqning irodasi bilan o'rnatilishi bilan bog'liq bo'lgan hodisa ekanligi haqida so'z boradi. Xalqlarning huquqlari *o'zlashtirish usuli* orqali mavjud bo'lishi mumkin ekanligi, bunda hech kimga tegishli bo'lmagan narsalarni egallashdir. Bu usul, shubhasiz, xususiy sotsializatsiya kiritilgandan keyin yuqoridagi ma'noda tabiiy usul bo'lib, hech qanday qonun boshqa hech narsa belgilanguniga qadar shunday bo'lib qoladi degan fikrni ilgari suradi[20]. Rimliklarga ko'ra, yovvoyi hayvonlar, tabiiy erkinlik holatiga qaytishlari bilanoq, bizning undagi huquqimiz tugaydi. (L. Quod enim. D. de acqui. dom. 1. L. Pomponius. D. of acqu. Poss.).

XVIII Bob aynan, "Elchilar huquqi"ga bag'ishlangan bo'lib, aynan elchixonalar yoki uning subyektlarining huquqiy mazmuni – xalqlar huquqidan kelib chiqishini ta'kidlab o'tgan. Elchilarning huquqlari nafaqat tabiiy huquq bilan birga balki, ilohiy huquqlarni o'zida jamlab oladi. Elchixonalar nisbat berishda, uning muqaddasligi, ularga nisbatan xalqlar huquqi, ilohiy va inson huquqlarining majburiy bajarilishi kerakligi haqida fikr yuritilgan. Shartnomalarda esa, elchilarning muqaddas shaxs ekanligi haqida so'z boradi. Sitseronning "Garuspiklarga javoblar" haqidagi nutqida shunday deydi: "Men aytganimdek, elchilarning huquqi odamlarning himoyasi bilan ta'minlanadi va ilohiy qonun bilan himoyalangan". Shuning uchun uning buzilishi nafaqat jinoiy, balki umumiy e'tirofga ko'ra ilohiy hamdir[21]. Elchilarni tayinlash va ularni jo'natish faqatgina mamlakat podshohlari uchun xos ekanligi va bu mamlakatlar o'rtasidagi muhim vositachi ekanligi ta'kidlangan.

Bundan tashqari, tabiiy huquqqa asoslanib Xalqaro huquqqa ta'rif bergan shaxslar qatoriga, Grotsiydan keyingi germaniyalik huquqshunos olim Pufendorf (1632-1694), Volf (1679-1754) kabi olimlar mashhur. XIX asr boshida I. Kantning yozishicha, G.Grotsiy, S. Pufendorf, Emmerix de Vattel va boshqalar hech qanday yuridik kuchga ega bo'lmagan «falsafiy va diplomatik kodeks»ni ishlab chiqqanlar[22]. Ammo, bu so'zlarning asossiz ekanligi va uning amaliyoti XIX asrdan oldin ham bo'lganligi isbotlangan. Ayniqsa, Xalqaro huquqning tabiiy huquq asoslari bilan emas, balki, pozitiv huquq bilan shahrlagan Emmirix de Vattel o'zining "**Le Droit des Gens**" (Xalqlar huquqi, 1758-yil) asarida ko'rishimiz mumkin. Bu asarning pozitiv huquqqa asoslanganligi, keyingi davrlarda *moddiy xalqaro-huquqiy normalarning* shakllanishida turtki bo'ldi.

Oradan bir necha yil o'tib, 1789-yilda Jeremy Benthamning "Xalqaro huquqning prinsiplari"[24] nomli asari keyingi davrning fundamental asari desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu asarda, "Xalqaro" so'zi[25], yurisprudensiya bilan bir qatorda qo'llanilib, uni pozitiv huquq sifatida ko'rsatib berilgan. Bentham Xalqaro yurisprudensiya so'zini *ius gentium* yoki xalqlar huquqi terminlarini o'rniga qo'llash kerakligi haqida: "*Xalqaro so'zi qabul qilinishi kerak, bu so'z yangilik bo'lib, xalqlar huquqi jumlasining yaqqol analogiyasi hamdir*" deya ta'rif bergan[26]. Benthamning fikricha: Huquqni tasniflashda, uning subyektlari ya'ni shaxslarning roli katta, ularning siyosiy nuqtai nazardan alohida ta'riflash lozim". Birinchi navbatda, milliy qonunchilik va undan keyingi bosqichda xalqaro huquqning o'рни muhim ekanligini ta'kidlagan[27]. Benthamning fikricha, millatlar qonunini faqat odat yoki konvensiya kuchi orqali ma'lum bir diskursiv kuchga ega. Biroq, u yanada kengroq ifodalash uchun shartnomalardan tashqariga chiqishi kerak deb hisobladi va boshqa tomondan, xalqaro — bu odat va konvensiya vositachiligiga muhtoj bo'lmagan atama. Qisqa qilib aytganda, xalqlar huquqi tushunchasini xalqlar o'rtasidagi huquq tushunchasi bilan almashtirishni taklif qildi.

Uning asari bir necha marotaba nashr qilingan bo'lib, 1843-yilda umumiy kitoblar jamlamasini nashr etishdi[28]. Bunda, Xalqaro huquq obyektlari, subyektlari, odob-axloq kabi vositalarni o'zida jam qilgan – Xalqaro huquqning prinsiplari nomli yaxlit bir kitobni jamlashdi. Jami 4 ta risoladan iborat bo'lgan **“Xalqaro huquqning prinsiplari”** asari shakllantirilgan. Aynan “Axloq va Qonunchilik” asarida Betham o'zining “xalqaro huquq” iborasini ishlatgani bilan mashhur. Shu bilan birga, Xalqaro huquqning Obyektlari nomli asarida: Barcha xalqlar uchun manfaatli bo'lgan, xalqaro kodeks ishlab chiqish g'oyasini ilgari surgan. Asarning keyingi qismi, Umumiy va adabiy tinchlik deb nomlanib, Xalqlar o'rtasida doimiy tinchlik o'rnatish zarur ekanligi ta'kidlangan. Bethamning fikrlarining hozirgi kundagi aksi, 1969-yil BMT tomonidan qabul qilingan “Shartnoma huquqlari” to'g'risidagi Vena Konvensiyasida o'z ifodasini topgan[29].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, xalqaro huquqning tadrijiy rivojlanishiga o'zining fundamental asarlari bilan o'z hissasini qo'shgan mutafakkirlarning ilmiy ishlari albatta tahsinga sazovor. Ilk fundamental asar sifatida Abu Bakr Saraxsiy, Gugo Grotsiy, Pufendorf, Volf, Emmirex de Vattel, Jeremy Benthamning o'ziga xos bo'lgan asarlarini tahlil qildik. Har bir asarning o'ziga xos bo'lgan, ilmiy yangiliklarni ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa Abu Bakr Saraxsiyning ilmiy yondashuvi keng ma'noda bo'lsa, Jeremy Benthamning ijodiy yo'nalishi aynan xalqaro huquq nazariyasida tor ma'noda, ko'proq mavzuni qamrab olishga bag'ishlangan. Xalqaro huquqning epik davri asosiy fundamental asarlar uchun makon davr bo'lganligi va shu bilan birga XI asr ham Xalqaro huquq borasidagi fikrlar hali hanuz nodirlicha qolmoqda. Hozirgi kunda ushbu klassik va fundamental asarlarning o'rni hozirgi kundagi barcha xalqaro shartnomalar, konvensiyalarda o'z aksini topgan. Xalqaro huquqning avval tabiiy huquqiy nazariyasi bilan keyinchalik, pozitiv huquq normalari bilan shakllanganligi, uning bir nechta chig'iriqlardan o'tib bir mujassam holga kelganligiga dalolat qiladi. Xalqaro huquqni o'rganib borar ekanmiz, albatta, biz bu shaxslarning ilmiy qarashlarini, huquqiy yondashuv uslublarini o'rganishimiz zarur.

Ayniqsa, bizning o'lkamiz ilm o'chog'i ekani, har davr uchun eng zabardast allomalarimizga ega ekanligimiz o'z o'rnida ham sharaft, ham mas'uliyatdir. Barchamizga ma'lumki, ko'plab sohalarining yetakchilari bizning diyorimizdandir. Hozirgi sharoit va imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda biz asl huquq sohasining yetakchisi Abu Bakr Saraxsiy hayoti va biz avlodlarga qoldirgan buyuk merosini chuqurroq o'rganishimiz zarur bo'lib, xalqaro maydonda yurtimiz nomini yanada ulug'lashimiz lozim.

Shu o'rinda ayrim G'arb tadqiqotchilari tomonidan bir yoqlama tadqiqotlar bilan chegaralanish ilmiy xolislikni amalga oshirishda to'sqinlik qilmoqda. Xalqaro huquq sohasida G'arb olimlarining asarlari e'tirof etilsa-da, ushbu olimlardan bir necha asrlar avval yashab o'tgan yurtimiz allomalari tomonidan huquq yo'nalishida bitilgan asarlarning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Isbot sifatida Imom Saraxsiyning biz yuqorida yoritib o'tgan asarlarini keltirishimiz mumkin. Bundan tashqari, buyuk huquqshunos olimlar – Burhoniddin Marg'inoniy, Abu Bakr Kosoniy va boshqa olimlarning asarlarida ham xalqaro huquqning turli masalalari yoritib o'tilgan. Bu esa, o'z navbatida, Sharq allomalarining xalqaro huquq sohasidagi izlanishlari, asarlari va bizga qoldirgan ilmiy meroslari beqiyos ekanligidan dalolat beradi. Islom va xalqaro huquqda ham bizning allomalarimiz dunyo miqyosida yetakchilik qilishgan, ularning ilmiy kashfiyotlari hali hamon dunyo hamjamiyatini lol qoldirib kelmoqda.

Ayniqsa biz Imom Saraxsiy kabi allomalarimizni o'rganib borish orqali, Yurtimizda yaxshi niyatlar bilan tamal toshini qo'yayotgan 3-Renessans uchun poydevor bo'lib xizmat qilishidan umid qilamiz. Hamda, ushbu asarlarni tadqiq qilish orqali Yurtimizni yana bir bor, har jabhada ustun ekanligini dunyo hamjamiyati oldida isbotlagan bo'lamiz.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Yuldasheva G. Xalqaro huquq. – T.: TDYU, 2018. -B. 7.
2. Umarxonova D.Sh., Umriddionov A.I. Vizual Xalqaro huquq. – T.: Yuridik adabiyotlar publish, 2021. -B. 19.
3. Ochilov B.E., Odilqoriyev X.T. Xalqaro ommaviy huquq. – T.: Adolat, 2007. -B. 37.
4. Umarxonova D.Sh., Umriddionov A.I. Vizual Xalqaro huquq. – T.: Yuridik adabiyotlar publish, 2021. -B. 28.
5. Yunusov H. Islom va xalqaro huquq. Islom xalqaro huquq ta'limoti: Saraxsiyning xalqaro-huquqiy qarashlari. Monografiya. – T.: Lesson press, 2022, B. 18.
6. A'zamxo'jayev S., Zikrullayev M., Shojalilov Sh., Mo'minov D., Saidjalilov S. 100 Markaziy Osiyo mutafakkirlari. Toshkent Islom universiteti; – T.: Yangi nashr, 2011. -B. 28.
7. Norman Calder. "as-Sarakhsi", Muhammad b. Ahmad b. Abu Sahl Abu Bakr, Shams al-A'imma. Encyclopedia of Islam (Leiden: Brill, 1997 Second Edition). -P. 29. // www.academia.edu
8. Abd al-Hai al-Laknavi, al-Fawaid al-Bahiyah fi Tarajim al-Hanafiyah (Quetta: Maktaba Omariyah) 2003. -P. 260.
9. Abdulloh Abdulhamid Saad. O'rta Osiyo olimlari qomusi. Imom Buxoriy ilmiy-ma'rifiy markazi, 2007. -B. 17.
10. Yunusov H. Islom va xalqaro huquq. Islom xalqaro huquq ta'limoti: Saraxsiyning xalqaro-huquqiy qarashlari. Monografiya. – T.: Lesson press, 2022. -B. 167.
11. Yunusov H. Islom va xalqaro huquq. Islom xalqaro huquq ta'limoti: Saraxsiyning xalqaro-huquqiy qarashlari. Monografiya. – T.: Lesson press, 2022. -B. 45.
12. Yuldasheva G. Xalqaro huquq. – T.: TDYU, 2018. -B. 263.
13. Muhammad Hamidullah. Sarakshi, Kitab Sharh al-Siyar al-Kabir. – Hyderabad. Siyar.vol. 5. P. 1868; Le grand livre de la conduite de l'État (Kitāb al-Siyar al-kabīr ach-Chaibani). Commenté par as-Sarakhsi, 4 vols. – Ankara: Türkiye Diyanet Vakfı, 1989–1991. Vol.I. Chapitre (61): De l'immunité dont jouit un ambassadeur. P. 358-361.
14. Vienna Convention on Diplomatic Relations 1961. Done at Vienna on 18 April 1961. Entered into force on 24 April 1964. United Nations, Treaty Series, vol. 500,
15. Burhan al-Din al-Farghani al-Marghinani. Al-Hidayah: The Guidance. A Translation of Al-Hidayah Bidayat al-Mubtadi'. A Classical Manual of Hanafi Law: II Volume. Translated from the Arabic with Introduction, Commentary and Notes by Imran Ahsan Khan Nyazee. – Bristol, England: Amal Press, 2006. -P. 660.
16. Гроций Г. О праве войны и мира. – Москва: Издательство АСТ ОГИЗ, 2023. -С. 10.
17. Куэльяр, Х. П. де. Послания и заявления, посвященные. Международному году мира, ООН. 1987. -С 33-34.
18. Гроций Г. О праве войны и мира. – Москва: Издательство АСТ ОГИЗ, 2023. -С. 29.
19. United Nations Convention on the Law of the Sea (UNCLOS), Montego Bay, 10 December 1982,
20. Гроций Г. О праве войны и мира. – Москва: Издательство АСТ ОГИЗ, 2023. -С. 298.
21. Treaty between the Holy See and Italy, Lateran Pacts of 1929,
22. Гроций Г. О праве войны и мира. – Москва: Издательство АСТ ОГИЗ, 2023. С. 451.
23. Кант И. Вечному миру // Трактате о вечному мире. – М.: 1963. С. 184.
24. Bentham, An Introduction to the Principles of Morals and Legislation, edited by J.H. Burns & H.L.A. Hart (London, 1970).

25. Hidemi Suganami , A Note on the Origin of the Word 'International', British Journal of International Studies Vol. 4, No. 3 (Oct., 1978). P. 226.
26. Bentham, *supra* note 1, 296, note x.
27. Bentham, *supra* note 1, 296.
28. Jeremy Bentham, The Works of Jeremy Bentham, volume II of the 1843 Bowring Edition, 1848.
29. Vienna Convention on the Law of Treaties, 1969, United Nations, *Treaty Series* vol. 1155

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).